

## YOSH AVLODNI MILLIY RUHDA TARBIYALASHDA AN'ANAVIY CHOLG'U IJROCHILIGINING TUTGAN O'RNI

*Mingishev Dilshod Haqberdiyevich*

*Qarshi ixtisoslashtirilgan san'at maktabining*

*“An'anaviy ijrochilik” bo'limi G'ijjak mutaxassisligi o'qituvchisi*

*Yaratov Madiyor Asqatovich*

*Doira mutaxassisligi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyalashda milliy musiqaning ahamiyati, an'anaviy ijrochiligida cholg'u musiqasining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, uning ijrochilik uslublari yoritib berilgan. Xususan, maqolada an'anaviy cholg'ulardan g'ijjak va doiraning ijrochilik uslublari bilan birga buyuk allomalarimizning milliy musiqaga qo'shgan hissalarini yoritilib o'tilgan..

**Kalit so'zlar:** ansambl, kamoncha, g'ijjak, doira, ritmika, unison, melodika.

Musiqqa ko'plab asrlar davomida insonga hamroh bo'lib, uning mehnat faoliyatini, turmushini, his-tuyg'usi hamda kechinmalarini, o'y-fikrlari va orzu-umidlarini aks ettirib kelgan. Insoniyat jamiyatining umumiy rivojlanishi hamda biron-bir xalqning konkret tarkiy turmush sharoitiga muvofiq holda uning musiqasi rivojlangan. Har bir xalqning boy mazmuni, janr va badiiy obrazlar xilma-xilligi, ohang xususiyatlarining o'ziga xosligi, ritmikasi va melodika (ohang) qurilishi, o'ziga xos musiqqa (cholg'u) asboblari yaratilishi bilan farqlanuvchi jozibador musiqqa asariari behisob. O'zbek xalqining cholg'u asboblari bag'oyat rang-barang: ular mavjud cholg'u asboblarining deyarli barcha tiplarini o'z ichiga oladi.

Tarixan shunday bo'lganki, an'anaviy o'zbek musiqasida — vokal musiqada ham, cholg'uda ham bir ovozli, ya'ni unison ijrochilik yaratilgan va bu an'ana hozirgacha saqlanib qolgan.

Shaxsning har tomonlama komil inson bo'lib shakllanishida barcha fanlar qatori musiqaning alohida o'rnini bor. Musiqqa shaxs ma'naviy barkamolligining tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Musiqqa san'atining yosh avlodga kuchliroq ta'sir ko'rsatishi faqat uni faol hamda chuqur idrok etishni emas, balki o'quvchilarning shu san'at bo'yicha dars jarayonida o'rganilayotgan musiqqa faoliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishni taqozo etadi.

Bolalar dunyosi beg'ubor olam, eng tinik tuyg'ular, shirin umidlar qanotli orzular baxtiyor bolalikka, tinch yurt farzandlariga yarashadi. Bolalar qalbi tabiiy ravishda ezgulikka intilib, kattalardan mehr – muruvvat kutib yashaydi. Ularning ongi esa doimo biror yangilikni bilishga bu murakkab olam sirlarini tezrok

egallashga harakat qiladi. Odatda bolalar atrofda bo'layotgan voqea - hodisalarga juda qiziquvchanlik bilan qaraydi va turli bilim va fikrlarni osonlik bilan qabul qilib ulardan chuqur ta'sirlanadi. Ya'ni inson bolalik chog'idanoq kamolotga intilib yashaydi. Komil insonni yaratish ma'naviy sog'lom avlodni tarbiyalash azal - azaldan xalqimizning eng ezgu orzusi bo'lib kelgan. Buyuk ajdodlarimiz Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy va Alisher Navoiy kabi alloma mutafakkirlarimiz ijodida ham barkamol inson haqidagi yuksak g'oyalar o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab, xukumatimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasiga juda katta e'tibor berib kelinmoqda va bu yo'nalishda bir qancha qarorlar qabul qilinib, turli tadbirlar amalga oshirilyapti. Biz kelajagi buyuk davlat yaratish uchun kurashar ekanmiz avvalo, ana shu kelajakda yashaydigan va biz boshlagan ishni yanada rivojlantirib takomillashtirishi zarur bo'lgan farzandlarimiz tarbiyasiga katta e'tibor qaratishimiz lozim. Hozirgi davrda jahonda yuz berayotgan voqealar va siyosiy - ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqqan holda xukumatimiz rahbariyati avvalo pedagoglar va madaniy - ma'rifiy soha mutaxassislari oldiga yangi - yangi, zamonaviy vazifalarni quyadi. Yoshlarga hozirgi siyosiy vaziyatni tushuntirish, ularning yosh ongini zaharlashga urinayotgan turli ma'naviy ahloqsiz hurujlardan ularni o'z vaqtida ogoh etib, himoya qilish eng dolzarb vazifalarimizdan biri bo'lib turibdi. Bu ishni birov ataylab tarqatayotgan o'ta xatarli yuqumli kasallikning oldini olish uchun qilinayotgan shifokorlarning emlashiga o'xshatish mumkin. Afsuski o'ta xafli bu «Yuqumli kasallik», har xil zararli g'oyalar ko'rinishida turli yo'llar bilan yurtimizga kirib kelib, eng avval ko'ngli ochiq, ishonuvchan, soddadil yoshlarimiz, farzandlarimiz ongi va qalbini zaharlayapti. Biroq, toki dunyoda taraqqiyotga, ma'naviyatga, adolatga intilish bor ekan jamiyatda ilg'or bunyodkorlik g'oyalari tug'ulaveradi. Bugungi kunda biz shunday g'oya xalqni farovon turmush, yorokin kelajak, buyuk boshlovchi milliy ruhda yo'g'irilgan bu g'oyalar yanada takomillashib xalqimizni buyuk kelajak sari boshlab boradi. Bu vazifani talab darajasida amalga oshirish albatta har o'qituvchining siyosiy ongi va bilimiga hamda uning psixologik mahoratiga bog'liq. Demak hozirgi davr musiqa madaniyati fani o'qituvchisi nafaqat professional ijrochi yetuk nazariyotchi bo'lishi balki siyosiy va pedagogik jixatdan ham ilg'or mutaxassis bo'lishi talab etiladi. Ma'lumki musiqa va qo'shiq, musiqiy oxanglar kishilar ongiga, kayfiyatiga va tarbiyasiga juda kuchli ta'sir etadi. Ma'lum bir kuy yoki qo'shiqlar kishilarga turli kayfiyatlar va tushunchalar hosil qilib, hatto ularning dunyoqarashlarining shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Buni bilgan ajdodlarimiz ham qadim - qadimdan yoshlar tarbiyasiga musiqaning imkoniyatlaridan keng foydalanib kelishgan. Xalqimizning o'ziga xos turmush tarzi, tafakkuri va dunyoqarashi, hayotga va voqelikka munosabatini ifodalovchi xalq og'zaki musiqiy

ijodi namunalari, «Alpomish» dostoni va «Shashmaqom» kabi san'at durdonalari milliy madaniyatimiz va ma'naviyatimizning shakllanishiga salmoqli hissa qo'shib kelyapti. Shu o'rinda biz milliy madaniyat deganda faqat kishilarning tashqi ko'rinishi va yurish - turishini emas, balki ularning haqiqatgo'y ichki madaniyatini, qalb go'zalligini nazarda tutayapmiz, ya'ni musiqa kishilarning avvalo qalbiga ta'sir qilib, uni poklashga xizmat qiladi. Bu xalqimizning milliy odatlarida, ota-onaga, o'zidan kattalarga hurmat, o'zaro samimiyat va mehribonlik kamtarlik, bag'rikenglik, muxtojlariga shavqat kabi ezgu ishlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Yuksak milliy madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirish hamda turmush farovonligini ta'minlash uchun birinchi navbatda yurtimizda kafolatlangan tinchlik, siyosiy iqtisodiy barqarorlik mavjud bo'lishi bunga erishishning eng asosiy yo'llaridan biri xalqni, avvalo yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashdan iboratdir.

Bugungi musiqa ta'limining eng muhim maqsadlaridan biri nazariy va amaliy jihatdan bilimli ijodkor, qobiliyatli yoshlarni tarbiyalab yetishtirishdir. Musiqa o'qitish jarayoni – bu o'qituvchi va o'quvchilarning muayyan maqsadga qaratilgan birgalikdagi o'zaro harakati bo'lib, bu jarayonda musiqa ta'limi, tarbiyasi va shaxsning musiqiy rivojlanishi amalga oshiriladi. Musiqa o'qitish jarayoni musiqa o'qitish qonuniyatlari va prinsiplariga mustahkam tayanishi lozim, ular o'quvchining imkoniyatlari va musiqiy iqtidoriga asoslanadi.

Musiqa vositasida dunyoqarashni ahloqiy, ma'naviy, aqliy, mehnatni shakllantirish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Musiqiy badiiy obrazlarning nozikligi, ohangdorligi, lirikligi eng nafis va noyob tuyg'ularga ta'sir etish imkonini beradi. Shu bilan birga aniq ritm, dinamik belgila, ohanglar keskinligi, tantanavorlik, garmoniyaga boyligi insonda dadillik, jasorat tuyg'ularini uyg'otadi. Musiqa bilan bevosita shug'ullanish esa katta ma'naviy, aqliy va jismoniy mehnat hisoblanadi.

Cholg'ularda har bir xalqning milliy g'ururi, an'anasi, qadriyatlari o'z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Musiqiy cholg'ularda ijrochilik san'ati insoniyat ma'naviyatini tarannum etuvchi vosita, ya'ni xalq ijodiyoti masuli bo'lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib kelayotgan mo'jizaviy va ifodaviy asboblardir. Bular barchasi yaratilajak cholg'ularning shakliga va milliylik mezoniga asos bo'lib xizmat qiladi. Tarix davomida, doimo musiqiy cholg'ularga bo'lgan e'tibor katta bo'lish bilan birga tarbiyaviy tomonlari ham alohida ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

Xalq cholg'ulari uzoq o'tmishda paydo bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki musiqa cholg'ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinmoqda. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan. Chunki eng qadimgi mehnat qo'shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan.



Qadimgi sharq madaniyati bag'rida, o'zbek xalq cholg'ulari shakllandi. Ular ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos xususiyatlarni, tovush tusini saqlab qoldi. O'ziga xos tuzilishi tufayli chang, nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, doira, g'ijjak, qo'bizlar an'anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi. Xalq orasida taomilda bo'lgan cholg'u asboblari an'anaviy kuy ijrochiligi barcha talablariga to'liq javob berardi.

Bugungi kunda o'quvchilarning milliy cholg'u asboblari orasidan g'ijjak va doira mutaxassisliklari faniga bo'lgan qiziqishini o'stirish uchun dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni to'g'ri tashkil qilish pedagoglarni oldiga qo'yilgan zamonaviy talablardir. Musiqa ta'limi jarayonini nazariy jihatdan tahlil qilish, ilg'or o'qituvchilar tajribalarini o'rganish, darsni turli bosqichlariga bo'lib o'tish ijodiy jarayon hisoblanadi.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklar orasida qadimdan keng tarqalgan kamoncha bilan chalinadigan torli cholg'u asbob g'ijjak hisoblanib, kosasi qovoqdan, o'rtasi kovak qilib o'yilgan yog'ochdan yasaladi. Kosaning ustiga baliq terisi yo pufak qoplanadi. Dastasi dumaloq bo'lib, kosaga yaqinlashgan sari ingichkalashtirib ishlanadi. Kosaga o'rnatilgan temir oyoqchani ijrochi tizzasiga qo'yib o'tirib chaladi. G'ijjakda dastlab uchta tor bo'lib, ular kvarta bo'yicha sozlangan. Sozlanishi har doim aniq bir tovushda bo'lmay, ashulachining ovozi yoki chalinadigan kuyning xarakteriga ko'ra turlichadir. 20- yillarda sozandalar g'ijjak ovozini baland qilish maqsadida unison qilib sozlangan qo'shtorlar ishlatganlar. G'ijjak yakka va ansamblda chalingan, kamonchasi ot dumidan ishlanib, chalish vaqtida o'ng qo'l barmoqlar bilan tortib turiladi. 30- yillarda g'ijjak qaytadan ishlandi, to'rtta tor joriy qilindi.

Shu bilan bir qatorda o'zbeklar orasida eng sevimli zarbli cholg'u, shubhasiz, doiradir. Diametri ellik santimetrgacha bo'lgan yog'och halqaning bir tomoni qattiq charm parda bilan qoplangan, ikkinchi tomoniga oltnishta metall halqa mahkamlangan. Musiqachi ikki qo'lning barmoqlari bilan mahkam cho'zilgan teriga nog'orani uradi va shu bilan birga doirani shunday silkitadiki, ritmik zarbalar halqalarning ohangdor jiringlashiga hamroh bo'ladi. Doira raqs va qo'shiqning ritmik jo'rliqi bo'lgan usulni ijro etuvchi virtuoz qo'lida shamol shitirlashini yoki bahor momaqaldiroqlariga o'xshab baland nog'ora sadolarini eslatuvchi mayin tovushlarni chiqarishi mumkin.

Musiqada ijodiy jarayonni tashkil etishda o'quvchilarni darsga moslashtirish, hayrihoxlik munosabatlarini hosil qilish, bajariladigan ishlar bilan tanishtirish, yakka tartibdagi va jamoa vazifalarini to'g'ri belgilash muhim ahamiyatga egadir. Bunda o'quvchilarning mustaqil fikrlay olishlari uchun bilimlari doirasini kengaytirishga, mavzuga ijodiy yondoshish ko'nikmalarini o'stirishga, fikrlash qobiliyati faolligini takomillashtirishga erishiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1) Matyoqubov O. – “Maqomot” – Toshkent-2004.
- 2) Abdullayev R. – “O'zbek mumtoz musiqasi” – Toshkent-2008.
- 3) 19.Sh. Matyoqubov “An'anaviy ijrochilik san'ati tarixi” Toshkent 2015
- 4) Qodirov D.Q. va Mamirov Q.M. “An'anaviy qo'shiqchilik va maqom asoslari” – Toshkent-2008.
- 5) O'zbekiston milliy ensiklopediyasi – Toshkent-2001